

Malika HASANOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti talabasi

E-mail: mhasanova@gmail.com

F.f.b.f.d. (PhD) U.Ametova taqrizi asosida

BADIY ASARNI ANGLASHGA DOIR "TANQID VA TARG'IB" TAHLILY YONDASHUVI

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy asar tahlili haqida ma'lumotlar, uning mazmun-mohiyati, badiiy asar tahlilida aynan nimalarga, qaysi jihatlarga e'tibor berish zarurligi, o'quvchiga asar mutolaasida muayyan yo'nalişlar berish, asar tanlashda yordamlashish borasida fikr-mulohazalar bayon qilingan. Namunalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'quvchi, asar tanlash, badiiy asar tahlili, adabiy tahlil, muallif, kitobxon, g'oya, sarlavha, lingvistik

ОБ АНАЛИЗЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Аннотация

В данной статье изложены сведения об анализе художественного произведения, его содержании, размышлениях о том, на что именно, на какие аспекты необходимо обратить внимание при анализе художественного произведения. Показаны образцы.

Ключевые слова: Анализ художественного произведения, литературный анализ, автор, читатель, идея, название, лингвистический

ON THE ANALYSIS OF A WORK OF ART

Annotation

This article provides information about the analysis of a work of art, its content, reflections on what exactly, what aspects should be paid attention to when analyzing a work of art. Samples are shown.

Key words: Analysis of a work of art, literary analysis, author, reader, idea, title, linguistic

Kirish. Badiiy adabiyot, badiiy asarlar insonlarga juda kuchli ta'sir ko'rsata oladigan ilohiy bir kuchdir. U inson his tuyg'ularini va ongini tarbiyalashda ulkan rol o'ynaydi. Badiiy asarlarning mualliflari bilan birgalikda kitobxon hayotning turli tomonlari, xarakterlar va hodisalar mohiyatiga kirib boradi hamda o'zida ularga bo'lgan munosabatni shakllantiradi. Insonni o'ylashga, fikrlashga va kechayotgan voqealarni tahlil qilishga chorlaydi. Inson ruhiyati tasvirlanar ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum. O'smir shaxsi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi, u doimo inson davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rinn tutadi.

Badiiy asar haqida gap ketganda, avvalo, uning badiiy kommunikatsiya (badiiy muloqot) vositasi ekanligiga to'xtalish joiz. Ma'lumki, muloqot paytidagina til hodisisi nutq hodisasiga aylanadi. Adabiy badiiy asar til vositalaridan tarkib topuvchi matn ekan, demak, u ham mohiyat e'tibori bilan nutq hodisasidir. Zero, adabiy badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi, ya'ni, ijod jarayoni mohiyatan muloqotdir. Ayni shu muloqot – ijodiy jarayon asar matrida muhrlanadi[1]. Xuddi maktubga o'xshash, asarni o'qish jarayonida muloqot qaytadan jonlanadi, endi yozuvchi tasavvurdagi "suhbatdosh" mavqeida tursa, o'quvchi real suhbatdoshga aylanadi[2]. Ko'ramizki, badiiy matn muddati kechiktirilgan badiiy muloqot, badiiy asar esa shu muloqotning amalga oshishini ta'minlovchi vosita ekan. Demak, ijodkor va o'quvchi orasidagi badiiy muloqotni amalga oshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy asar badiiy muloqot vositasi deb tushuniladi.

Ma'lumki, ko'pincha yozuvchi va shoirlarimiz asarni farzandga qiyos etadilar. Darhaqiqat, asarning dunyoga kelishimi farzand tug'ilishiqa qiyos etsa arzigulik. Shunga o'xshash, badiiy asar ham ijodkor ongida yetiladi, payti kelgach qog'ozga tushiriladi va o'quvchiga yetkaziladi. Ya'ni, endi ijodkor ongida yetilgan asarning yaratilmasligi mumkin emas, ijod psixologiyasi shuni taqozo qiladi. Adabiyot tarixi buni ko'plab faktlar bilan tasdiqlaydi: ko'plab ijodkorlar yaratajak

asari hayotida turli noxushliklar keltirib chiqarishi, hatto hayotiga xavf solishi mumkinligini bilgani holda ham uni yaratish fikridan qaytmaganlar.

Badiiy asar – butunlik, bu butunlikdagi biror bir unsurni asar mazmun- mohiyatga putur yetkazmagan holda olib tashlash mumkin emas[4]. Sababi, badiiy asarni tashkil qilayotgan unsurlarning barchasi bir-biri bilan mustahkam aloqada, ayni shu aloqalar asosida butunlik yuzaga keladi, ya'ni, badiiy asar – qismlardan tashkil topayotgan butunlik, bir sistemadir.

Badiiy asarlar tahlili odatda turli kishida turlicha taassurot qoldiradi va bu odamlarning turli ijod mahsullarga turlicha baho berishiga ham olib keladi. Badiiy asar tahlilida bizga kerakli ma'lumotlar muallif biografiyasi, asar nomi, asar mavzusi, asar g'oyasi, asar sarlavhasi haqida fikr, ligvistik tahlili, asardagi milliy kalorit, asardagi tugun, kulminatsiya, yechim, natija, asardan olgan taassurot va maqulligi. Misol tariqasida Jorjiy Zaydonning "Farg'ona kelini" asari tahliliga qarashimiz mumkin:

Muallif biografiyasi: Jorjiy Zaydon (1861-1914) arab yozuvchisi, adabiyot sohasidagina emas balki til falsafa, tarix, huquq, geografiya, jurnalistika sohalarida ijod etgan. Mashhur tarixiy romanlari: "G'assonlik qiz", "Horun ar-Rashidning singlisi", "Farg'ona kelini"

Asar nomi: "Farg'ona kelini"; Janr: roman; ijodiy metod: realizm;

Asarning mavzuvi tasviri: tarixiy.

Asar mavzusi: asar qahramonlari Jahon va Zirg'om o'z muhabbatlari yo'lida ko'plab to'siqlarga uchrasada, o'z muhabbatlari uchun kurashadilar. Zirg'om o'z sevgisi Jahonga yetishish uchun ko'plab sarguzashtlarni boshidan kechiradi.

Asar g'oyasi: Jorjiy Zaydon bu romanda IX asrda arab xalifaligidagi, xususan Movarounnahrda o'tgan voqealarga asoslangan holda yozgan.

Asar sarlavhasi haqida fikr: asar sarlavhasi judaham to'g'ri tanlangan, bu yozuvchining yuksak mahoratini ko'rsatib bera olgan.

Asarning lingvistik tahlili: Frazeologizmlar: ko'ngliga qo'l solib ko'rmoqchi, quyub qo'ygandek o'zi, issiqning hovrini ko'taradi; Toponimlar va joy nomlari: Farg'ona, Qo'qon, Toshkent daryosi, Eron, Bag'dod, Arbadil, Tabariston, Turkiston, cho'llar; Kasb hunarga oid so'zlar: dehqon, hokim, xizmatchi, cho'ponlar, lashkarboshchi, askarlar, kohin.

Asardagi milliy kalorit: hamma Navro'z bayramiga tayyorgarlik ko'riishlar, hovlilarni tozalash, mehmonlar uchun nozune'matlar, ovqat pishirishlar, odamlar bolalariga sovg'a olishlar.

Asardagi tugun: Hokim Zirg'omning onasiga ishonmay saroyiga chaqiradi va uni sinash uchun amaldorlaridan biriga eriga bermoqchiliginini aytadi, Zirg'omning onasi esa buni rad etadb yolg'iz o'g'limni o'zim boqaman deb javob beradi, hokim ularga

saroyidan joy beradi, yillar o'tgach Zirg'om va hokimning qizi Jahon bir biriga oshiq bo'lishadi.

Asar kulminatsiyasi; Jahon va Zirg'omning uzoq ayrılıqdan so'ng tasodifiy uchrashib qolishi. Ko'plab qiyinchilik va ayrılıqlardan so'ng ikki sevishgan birga bo'lishi.

Bunday tahliliy yondashuv kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman, asarni nafaqat tanqid yoki tahlil qilish, balki uni targ'ib ham qilish lozim, bunda quyidagilarga alohida e'tibor qilinishi lozim:

T/r	Asarni tahlil va targ'ib qilishning asosiy yo'nalishlari	Natija
1.	Munaqqidlar tomonidan asarlar o'quvchi yoshiga mosligi bo'yicha tavsiyalar berishi;	O'quvchi asar mutolaasidan bezib qilmaydi.
2.	Hamma o'qishi lozim bo'lgan asarlar ro'yxatini ilmiy asosda tuzib chiqish;	Bu o'quvchiga to'g'ri yo'nalish ko'rsatadi.
3.	O'qilgan asarlar asosida jalb qiluvchi jumla va fikrlardan badiiy asar targ'ibotida foydalanishni yo'nga qo'yish;	O'quvchini badiiy asar o'qishga qiziqriradi.
4.	Asar muallifining fikri va kitobxon munosabatini qiyosiy o'rganish;	Asar haqida to'g'ri va aniqroq xulosa chiqarish imkonini beradi.
5.	Eng ko'p o'qilgan asarlarga bildirilgan eng yaxshi tanqidiy fikrlarni jamlash.	Bu badiiy asarni teranroq tushunish imkonini beradi.

Shuningdek yaqinda nashr etilgan va hamma e'tirof qilayotgan "Jadidlar. Qodiriylaydi hayoti va ijodi" kitobi haqida ham mulohaza qilib ko'rish mumkin. Kitobdagagi eng e'tiborimni o'ziga jalb qilgan va Qodiriyni yana bir bor yaxshiroq anglashga yordam beragan jumla budir: "Bo'yniga tilla tumor taqqan qizlarni o'ylamangiz olima deb".

Abdulla Qodiriylaydi kuychisi, adolat va ziyo elchisi edi. Nafaqat Qodiriylaydi balki , barcha jadid adabiyoti namoyondalarining orzu-umidlari, maqsadlari ma'rifat tarqatish, xalqni, o'g'il-qizlarni ilm olishga undash edi. Qodiriylaydi ham o'zbek romanchiligi asoschisi sifatida, ijodining dastlabki namunalarda millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, jadidchilik g'oyalarini ilgari surdi. Umri davomida jaholatni qoraladi, turli maishiy dog'lar sabab kirlangan yuraklarni adabiyot bulog'inining pokiza suvi bilan yuvishga qaror qildi. Millatni uyg'oqlikka, ogohlilikka va fikrashga chorladi.

Hatto, jon taslim qilayotgan vaqtida ham haqiqat uchun, mardona turib berdi.

Asarni o'qir ekanman, Qodiriylaydi siyosida "O'tgan kunlar" asaridagi Otabek ko'z oldimda gavdalandi. Qodiriylaydi har bir asarini yaratishdan oldin, o'sha hayotda o'sha vaziyatda yashab ko'radi. Asar qahramonlari o'rniga o'zini qo'yib ko'radi. Hatto so'ngida Kumushning o'limi uchun ko'z yosh to'kadi. Uni Qodiriylaydi o'ldirmagandi, asar Qodiriylaydi tomonidan yozilgan lekin keyingi voqealarni taqdir boshqargan, Qodiriylaydi emas. "O'tgan kunlar" ishqiy roman emas, yozuvchi asar orqali o'sha davrdagi siyosatni , xonlikdagi o'zboshimchaliklar va xalqning og'ir ahvolini ochib bergan edi.

Undan tashqari Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", "Juvonboz", "Uloqda" va boshqa bir qator siyosat va ma'rifat haqidagi nodir asarlari mavjud. Ular ichida yana bir ta'sirli asar "Baxtsiz kuyov" dramasi. "Padarkush" dramasi ta'sirida yozilgan bu drama, Padarkushdagi kabi fojeaviy yakun topdi. Dramada ilmsizlik oqibatida ortiqcha sarf-xarajatlar, foydasiz hashamatli to'y ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelgan. Yakunida drama qahramonlari Solih bilan Rahima to'y uchun qarzlarini to'lolmay, o'zlarini pichoqlab o'ldirishadi. Kattalarning isrofgarchiligi, shariati islomga amal etmaslik natijasida, shunday oqibatlarga olib keladi. Drama xulosasi sifatida "Bid'at to'yga qiladuron oqchaga o'g'lingizlarni o'qitinglar yoki jamiyatga iona qilinglar. O'gil o'qutmoq yaxshi ham farzdar,to'yga isrof qilmoq bid'atdir ", deya yakunlaydi.

Bularning barchasi millatning taraqqiyotini to'sadi va o'z-o'ziga bolta uradi. Qodiriylaydi jadidchilik adabiyotiga katta hissa qo'shganligi bilan o'zining ma'rifatparvar, millatparvarligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining ulkan merosi va nomi Mustaqillik yillarida oqlanib, hozirga qadar e'tirof etib kelinmoqda.

Xulosa. Badiiy adabiyotning inson hayotida ahamiyati juda yuqori. Inson ardoqlab keladigan eng noyob hislar insonparvarlik, adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik, mehr va muruvvat, sevgi-muhhabat singari o'lmas insoniy tuyg'ular kishi ongida, shurunda, ruhiyatida mujassamlashadi va bu hislar adabiyotga oshno insonlar qalbiga ko'chib o'tadi. Tuyg'ular esa faqat aql orqali emas, balki ko'ngil orqali seziladi, ta'sir o'tkazadi. Shunday ekan, badiiy asarlar badiiy adabiyotning muhim ajralmas tarkibiy qismi bo'lib qolaveradi. Tahlil orqali asar muallifi aytmoqchi bo'lganlarini anglash eng muhim masaladir. Bunday tahlillar o'quvchiga mutolaa uchun yo'nalish beradi, zarar asarlarni topib o'qish va tushunishga yordam beradi. O'quvchilarga qaysi asarni qanday o'qish bo'yicha tavsiyalar berish, asar tanlash bo'yicha "Asaxiy books" va "Uzum" platformalari faoliyatini ommalashtirish, ularning mazmunini boyitish lozim.

ADABIYOTLAR

- Umurov H. Badiiy ijod asoslari. –T.: O'zbekiston, 2001.
- Quronov D., Usmonov H. Ideal va badiiy yaxlitlik//Tafakkur.-1996.-№4.- B.36-41
- Шайхисламов, н. (2021). Замонавий тилшунослик йўналиши: контакт лингвистикаси. Scientific progress, 1(4).
- Jo'rjiy Zaydon Farg'ona kelini (roman). 2021
- Umurov. H. Adabiyot qoidalari. Toshkent: O'qituvchi. 2002. B. 5-8
- Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. –T.: A.Qodiriylaydi nomidagi xalq merosi nashr., 2004 y. 224-b.
- Qodiriylaydi A. O'tkan kunlar. Roman. –Toshkent, Ma'naviyat. 2018. 89-93 b.